

# O‘zbek tili darslari uchun yangi o‘zbek adabiyotidan asar tanlash

Roza Niyozmetova<sup>1</sup>

## Abstrakt

Maqolada ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o‘zbek tili darslarida o‘rganish uchun yangi o‘zbek adabiyotidan badiiy yuksak asarlar tanlash, shu asarlar orqali el ardog‘idagi adiblarga hurmat va ehtirom hissini uyg‘otish, ular bilan tanishish istagini paydo qilish muammolari va yechimlari bayon qilindi: o‘quvchilarda davlat tilidagi durdona adabiy asarlarni o‘qish istagini yuzaga keltiradigan omillar, asar tanlashning asosiy uch jihatini (badiiy qiymatining yuksak bo‘lishi, ijtimoiy ahamiyatga molik ekanligi, o‘qigan odamga zavq-shavq bag‘ishlashi) ta'minlashda hisobga olish zarur bo‘lgan holatlarga aniqlik kiritildi, asar mazmunini tushunishni qiyinlashtiradigan til hodisalari izohlandi va ularni bevosita o‘qishga qadar bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Mazkur maqolada tanlanadigan asarda uni to‘g‘ri va to‘liq tushunishda yuzaga keladigan quyidagi qiyinchiliklar hisobga olinishi zarur deb topilgan va keng izohlangan: asar tanlashda ularda leksik qiyinchiliklarning bor-yo‘qligi, ko‘p-ozligi; hali o‘rganilmagan yoki umuman o‘rganilmaydigan grammatik materiallarning mavjudligi; asar janriga ko‘ra hayotni, sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni tushunish qiyinchiligi; muammolilik tufayli yuzaga keladigan qiyinchiliklar; o‘quvchilarning ijtimoiy va psixologik xususiyatlari; axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari; badiiy qiymati yuksak asarlarni tanlash qiyinchiliklari.

**Kalit so‘zlar:** rusiyzabon o‘quvchilar, 2–9-sinflar, o‘zbek tili darslari tarkibida, o‘rganish, yangi o‘zbek adabiyoti, yozuvchi, shoir, janr, mahorat, asar tanlash, tamoyil, leksika, grammatika, mazmun, idrok etish, estetik zavq, badiiy qiymat, hisobga olish, qiyinchiliklar.

## Kirish

Bugun mustaqil O‘zbekistonimizdagi ta'lim tizimida jiddiy yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yangilanish va o‘zgarishlarning bosh maqsadi barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdir. Bu maqsad jamiyatimiz oldida yuzaga kelgan nihoyatda kuchli ijtimoiy ehtiyoj zamirida tug‘ildi. Zero, avvalgi ta'lim tizimi va shakllangan amaliy tajribalar ana shu ehtiyojni to‘la qondira olmayotgani yo‘q edi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da buning tub sabablari

---

<sup>1</sup> Niyozmetova Roza Khasanovna -Алишер Навоий номидаги ўзбек тили ва адабиёти университети «Ўзбек тили ва адабиётини ўқитиш методикаси» кафедраси профессори, педагогика фанлари доктори.

Email: mushtariy63@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-7766-5295

Iqtibos uchun: Niyozmetova R. 2021. “O‘zbek tili darslari uchun yangi o‘zbek adabiyotidan asar tanlash”.  
*O‘zbekiston: til va madaniyat.*

sirasiga sifatli o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi ham kiritildi [1. 36-b.].

Jamiyatimiz ravnaqi, hayotimiz istiqboli, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash, ularning davlat tilini kasb taqozo etadigan darajada egallashlariga erishish muammosining muvaffaqiyatli hal etilishiga bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'lim-tarbiya tizimida uzluksizlikni ta'minlashga, yoshlarning umumiy madaniyatini yuksaltirish, ularni jamiyat, davlat, oila oldidagi o'z burchi va mas'uliyatini chuqur anglaydigan kishilar sifatida voyaga yetkazish maqsadini ko'zlaydi. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini, o'z navbatida o'zbek tili darslari tarkibida yangi o'zbek adabiyotini o'qitish mazmunini isloh qilish «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning taqozosidir. «Yangi o'zbek adabiyoti» atamasi bizda ba'zan «XX asr adabiyoti» tushunchasining sinonimi bo'lib, millat adabiy tafakkuridagi tamomila o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan yangi davrni ifoda etadi va XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bugungi kunlarimizgacha bo'lgan zamon oralig'ida yaratilgan milliy adabiyot namunalarini anglatadi» [2. 171-b.].

Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda yangi o'zbek adabiyoti namunalarini o'rganishning nazariy hamda metodik asoslarini o'quv rejasi, vaqti-vaqti bilan takomillashib borayotgan o'quv dasturlari, darsliklar, shu jarayonlar, ayniqsa, nodir adabiy materiallar bilan bog'liq ravishda mukammalashayotgan ta'lim shakli va mazmuni, metodik adabiyotlar, fan sohasidagi yutuqlar tashkil etadi.

Har bir millat adabiyoti dunyo badiiy tafakkurining rivojiga o'z hissasini qo'shadi. O'zbek adabiyotining sara va durdona asarlariga ana shu nuqtai nazardan qaralganda, jahon xalqlarining ularni qiziqib o'qishi sabablarini tushunish mumkin. U yoki bu xalqning o'ziga xosligi, tabiatini anglash adabiyot namunalari yordamida samaralilik kasb etadi. O'zbek adabiyoti mamlakatimizda yashayotgan o'zbek bo'lmagan millatlar vakillarining xalqimiz ma'naviyati, qadriyatlarini, san'at asarlari orqali hayotdan qay tarzda zavq olishlari bilan tanishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi, ularda shu xalqqa nisbatan chuqur hurmat va ehtirom hissini kamol toptiradi, ular o'zlarini ana shu yurt, xalq vakili sifatida ko'ra boshlaydilar, adabiyot ularni hamjihatlikka undaydi. Bu borada sharqshunoslik ilmidagi ko'plab iliq so'zlar aytilgan [3].

O'zbek adabiyoti bilan tanishish istagi quyidagi omillarga ko'ra paydo bo'ladi:

1) el ardog'idagi yozuvchi va shoirlarning e'zozlanish sababini bilishga bo'lgan qiziqish;

2) o'zbek xalqining madaniyati, san'ati va adabiyoti bilan yaqindan tanishish istagi;

3) o'zbek adabiyotining sara va durdona asarlari mualliflarini bilish istagi.

Asardan uning muallifiga qarab borish izchilligida asar tanlansa, ushbu asarda rusiyzabon o'quvchilar uchun notanish va anglash qiyin bo'lgan leksik va

grammatik materiallar yo'qligi yoki ozligiga qarab emas, balki quyidagi uch jihatiga qarab baho berish yo'lidan boriladi: 1) badiiy qiymatining yuksak bo'lishiga, 2) ijtimoiy ahamiyatga molik ekanligiga, 3) o'qigan odamga zavq-shavq bag'ishlashiga (estetik ta'siriga) e'tibor beriladi.

O'zbek xalqining madaniyati, san'ati va adabiyoti o'zga millat vakillari tomonidan katta qiziqish tufayli o'ta sinchkovlik bilan idrok etiladi. Ana shu idrok asarning badiiy qiymati bilan quvvatlanishi lozim. Ayni paytda badiiy qiymati yuksak asarlarni tanlashda yozuvchi va shoirlarning taniqli, el ardog'ida ekanligi ham hisobga olinadi. Chunki maqsad badiiy qiymat orqali yozuvchi yoki shoirning buyukligiga qarab borilar ekan, o'quvchida ushbu adibga cheksiz hurmat va ehtirom hissini uyg'ota olishi kerak. Ular XX asr o'zbek adabiyoti orqali A.Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, G'afur G'ulom, A.Qahhor, Hamid Olimjon, Zulfiya, E.Vohidov, A.Oripov kabi shoir va yozuvchilar siymosini ko'ra bilishlari lozim.

O'zbekistonda yashab mehnat qilayotgan har bir fuqaro shu yurtning atoqli kishilari to'g'risida ma'lum darajada xabardor bo'lishi, shu yo'l bilan sharqona madaniyatlik xislatlarini egallashi talab etiladi. Shahar va viloyatlarning tumanlari, ko'chalari, tashkilot va muassasalariga biror adibning, olimning, alloma yoki atoqli kishilardan birining nomi qo'yilgani o'z-o'zidan kishini ularning xizmatlari haqida ma'lumot olishga undaydi, kitobxonlikka da'vat etadi.

O'zbek adiblarini mashhur xorij adiblari qatorida ko'ra olish, ularni baravar qadrlay bilish o'quvchilarda shakllantirish lozim bo'lgan qimmatli insoniy fazilatlardan biridir. Rus oilalaridagi kitob javonini bezab turgan va oilaning deyarli barcha a'zolari tomonidan sevib o'qiladigan Umar Hayyom, A.Navoiy, Bobur, Uvaysiy va boshqa adiblarning she'riyati (tarjima asarlari) ana shu e'zozdan, qadrlashdan dalolat beradi.

Rus xalqi va boshqa xalqlar madaniyati, adabiy merosi, ma'naviyati ruhi bilan sug'orilgan o'quvchilarning o'zbek adabiyoti haqida yetarli tasavvur hosil qilishlari ham, atoqli adiblari yaratgan nodir asarlari, o'zbek xalqining tarixi, madaniyati, milliy qadriyatlari, milliy ma'naviyati, urf-odatlarini, adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida tushunchaga ega bo'lishlari ham tanlanadigan asarlar majmuasiga ko'p jihatdan bog'liq ishdir.

Asari orqali taniqli adibni anglagan, bilgan, unga nisbatan o'zida hurmat hissini tuygan, tegishli mutolaa ko'nikmalariga ega bo'lgan o'quvchi keyinroq boshqa taniqli yozuvchi yoki shoirga qiziqish tug'ilganda uning asari bilan tanishish yo'lini tanlaydi. Bu borada o'qituvchining beradigan yo'nalishi muhim o'rin tutadi, o'zbek shoir va yozuvchilariga rus aliblarining bergan baholari ham yaxshigina turtki bo'ladi.

G.I.Xalliyevaning ta'kidlashicha, rus sharqshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlarda «badiiy asarga bir vaqtning o'zida ham lisoniy, ham adabiyot, ham ijtimoiy-falsafiy, ham etnografik, ham tarixiy manba sifatida qaralgan» [3; 16-b.]. Yaqin o'tmishgacha ham o'zbek tili o'quv fanini o'qitish mazmunida asosan til hodisalari, O'zbekiston haqidagi ma'lumotlar aks etar, darslik materiallaridagi badiiy bo'lmagan va sanoqli badiiy asarlardan olingan parchalar asosida faqat til

hodisalarini, ular taqdim etilgan ma'rifiy materiallarni o'rgatish ko'zda tutilar, ya'ni o'zbek adabiyotini o'rganish maqsad qilib qo'yilmas edi. Istiqloq davriga kelib o'zbek tili darslari tarkibida o'zbek adabiyoti yuzasidan tushuncha hosil qilishga qaratilgan adabiy ta'lim mazmuni ham o'z ifodasini topdi, ayrim «O'zbek tili va adabiyoti» o'quv dasturlari va darsliklar ham yuzaga keldi [4], [5], [5]. O'zbek adabiyoti namunalarini o'zbek tili darslari tarkibida o'rganish ma'qul topilganidan keyin o'quv dasturlarini faqat «O'zbek tili» deb nomlashga o'tildi. Lekin «O'zbek tili» davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi talablaridan o'zbek adabiyotini o'rganishga doir talablar ham o'rin ola boshladi.

Qidirgan topmay qo'ymaydi. Bu o'rinda Ye.V.Ignatovning quyidagi fikrini keltirib o'tish joiz: «Hatto badiiy asarlardan olingan qisqa matnlar misolida ham o'quvchilarning adabiy ta'limi bilan bog'liq keng ko'lamdagi vazifalarni ado etish mumkin» [7]. Albatta, muallif qisqa matnlarning adabiy ta'limdagi imkoniyatlarini behad oshirib baholagan ko'rinadi. Har qalay, bu fikrga qo'shilmay bo'lmaydi, chunki haftasiga ikki o'quv soati ajratiladigan o'zbek tili darslari tarkibida o'zbek adabiyotini mukammal o'rganishning sira ham iloji yo'q, u fragmentar bo'la oladi, xolos.

Adabiyotni o'rganish imkoniyatlari oz bo'lgan bir sharoitda adabiy merosimizning durdona namunalarigina adabiy ta'lim mazmunida asosiy mavqeda bo'lmog'i lozim. Badiiy asarlarning g'oyaviy mazmuni, ma'rifiy va axloqiy jihatlari, til xususiyatlari, jumladan, yozuvchi yoki shoirlarning so'z ishlatish mahorati, o'zbek adabiyotiga xos tasviriy vositalarni o'rganish ana shu imkoniyatni beradi. Badiiy yuksak asar uni yaratgan yozuvchi yoki shoirga bo'lgan qiziqishni oshiradi, unga nisbatan cheksiz hurmat tuyg'usini paydo etadi. Qiziqish kuchli bo'lganda, o'quvchi o'qituvchidan yoki biror manbadan u haqda ma'lumot olishga intiladi. Bunday vaziyatda o'qituvchinning ma'lumot berishdan maqsadi adibning «dasturga kirmagan eng muhim asarlari to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilish» [8. 21-b.] bo'ladi. Zero, yoshlar o'zbek adiblarini, olimlariyu madaniyat va san'at arboblarni, allomalariyu atoqli kishilarini bilishlari va ularga nisbatan hurmat hamda ehtirom namoyon etishlari, buning uchun ularning hayoti va faoliyatini o'qib o'rganishga intilishlari darkor.

Ikkinchi tilni o'qitish metodikasida tili o'rganilayotgan mamlakat haqidagi ma'lumotlar, shu jumladan adabiy materiallar o'lkashunoslik deb atalgan, shu nuqtai nazardan ko'plab metodik tadqiqot ishlari yaratilgan. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tili davlat tili sifatida o'qitiladi, shunga ko'ra ham o'quvchilar o'zbek tili darslari tarkibida o'zbek adabiyoti bilan 2–9-sinflarda izchil tanishtiriladi.

«O'zbek tili» davlat ta'lim standartida «O'zbek adabiyotining ixcham va go'zal namunalari, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalar, jahon milliy madaniyatiga hissa qo'shgan o'zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o'rganish ham ko'zda tutiladi» [9. 249-b.]. Bu yerda o'zbek adabiyotining ixcham va go'zal namunalarini o'rganish kerakligi alohida ta'kidlangan.

Yaqin o'tmishgacha o'zbek tili o'quv fanini o'qitish mazmunida asosan til hodisalari aks etar, darslik materiallaridagi badiiy bo'lmagan va sanoqli badiiy asarlardan olingan parchalar asosida faqat til hodisalarini o'rgatish ko'zda tutilar, ya'ni o'zbek adabiyotini o'rganish maqsad qilib qo'yilmas edi. O'zbek tili darslarida adabiy materiallar asosida amalga oshiriladigan adabiy ta'limning bugungi holati bilan tanishish shuni ko'rsatdiki, XX asr va istiqloq davri o'zbek adabiyotini o'qitishga doir materiallar ko'p jihatdan to'g'ri tanlanmagan, yaqin-yaqingacha «O'zbek tili» o'quv dasturida matnlar (jumladan, adabiy matnlar) til hodisalarini o'rganish uchun xizmat qiladi, degan munosabat ustuvorlik qilgan, bu materiallar o'zga til egalariga, xususan, rusiyzabon o'quvchilarga o'zbek tilini, uning leksikasi va grammatikasini o'rgatishgagina bo'ysundirilgan, bir so'z bilan aytganda, adabiy o'qish va adabiy ta'limga yetarli darajada e'tibor berilmagan.

Badiiy asarlar orqali yoshlarni sharqona odob-axloq qoidalari, urf-odatlar, milliy ma'naviyat va qadriyatlar bilan samarali tanishtirish mumkin. Shunga ko'ra ta'lim mazmunida yoshlarning badiiy-estetik tarbiyasini ro'yobga chiqarish, qolaversa, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ma'rifiy, ta'limiy maqsadlar, o'zbekni anglash uchun xizmat qildirish maqsadi ko'zlanishi kerak. Bugina emas, u o'zbek adiblarining hayoti, ijodiy merosi, ijtimoiy faoliyati haqida yetarli tushuncha hosil qilishga qaratilishi zarur. Bu tushunchalar estetik va etik normalarni anglatib borish orqali ma'lum qilinadiki, bu ishlar badiiy-estetik did o'stirish bilan ham bog'lanadi.

O'quvchilarning asardan yetarli estetik ta'sirlanishlari uchun ularga mazmun deyarli to'liq tushunarli bo'lmog'i, tasviriy-ta'siriy vositalarini, iboralarni anglay bilishlari hisobga olinmog'i darkor. O'quvchilarning o'zbek tilidan egallayotgan **leksik va grammatik vositalar** boyligining she'riy va nasriy asarlarda ishlatilishiga ko'ra ahamiyati bir xilda emas. She'riy asarlarda so'zlarning ishlatilishi ma'nolarning quyushishida o'z ifodasini topadi, bo'yoqdor so'zlarning ko'pligi bilan asar mazmunini tushunishga bo'lgan qiyinchiliklarni oshirib yuboradi. Hali o'rganilmagan yoki o'rganilmaydigan so'zlari ko'p bo'lgan she'rlar mazmunini tushunish bilan bog'liq mushkulliklarning asosiy sababchisi sanaladi.

Shu nuqtai nazardan o'zbek tili darslari imkoniyatlari doirasida zamonaviy o'zbek adabiyotini o'qitish mazmunini belgilash, shu jumladan asar tanlashning murakkabliklari amaliyot orqali aniqlangan quyidagi til hodisalari bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi:

- 1) asar tanlashda leksik qiyinchiliklarni hisobga olish;
- 2) asar tanlashda grammatik qiyinchiliklarni hisobga olish;
- 3) asar janriga ko'ra hayotni, sodir bo'layotgan voqyea-hodisalarni tushunish qiyinchiligi;
- 4) muammolilik tufayi yuzaga keladigan qiyinchiliklarni hisobga olish;
- 5) o'quvchilarning ijtimoiy va psixologik xususiyatlarini hisobga olish;
- 6) axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini hisobga olish;
- 7) badiiy qiymati yuksak asarlarni tanlash qiyinchiliklarini hisobga olish.

Rus tilida soʻzlovchi oʻquvchilarning oʻzbek tilidagi asar mazmunini qanchalik toʻliq tushuna olishlari va undan zavqlanish imkoniyatlari oldindan chamalab koʻrilishi, tajribadan oʻtkazish yoʻli bilan aniq xulosalar toʻplanishi, tanlanadigan asar shular (yetti xil qiyinchilik) nuqtai nazaridan chuqur oʻylab koʻrilishi lozim.

Asar tanlashda **leksik qiyinchiliklar** birinchi navbatda hisobga olinmogʻi zarur. Badiiy asarda badiiy uslub talabiga koʻra soʻzlashuv va kitobiy uslubga xos leksikadan ancha koʻp, baʼzan tesha tegmagan soʻzlar ishlatiladi. Masalan, Alisher Navoiyning asarlarida 24 mingdan ziyod soʻz qoʻllangan. Maktabda oʻzbek tili darslarida leksik materiallar chegaralangan hajmda oʻrganiladi. Birinchidan, oʻquv soatlari oz (haftasiga 2 oʻquv soatidan), ikkinchidan, 9-sinfni bitiruvchilar davlat taʼlim standarti talablariga koʻra II–IX sinflarda taqdim etiladigan jami 2100 tub soʻz va qoʻshimcha ravishda shu soʻzlar hajmida yasama soʻzlarni oʻrganadilar, xolos. Vaholanki, nazmiy va nasriy asarlar ogʻzaki nutqda qoʻllanmaydigan badiiy uslubga xos soʻzlarga boydir.

Yuksak badiiy qimmat tushunchasiga koʻra tesha tegmagan, umuman asarda kutilmagan, oxiri toʻkilmagan soʻzlar va til vositalari ishlatilishi kerak. Lekin, Izzat Sultonning yana bir taʼkidini inobatga oladigan boʻlsak, «Yozuvchining tili oʻzining rango-rang va boyligi bilan ajralib turgan holda, ayni paytda hamma uchun tushunarli boʻlishi ham kerak» [10. 226-b.].

Minimumdan ortiq notanish soʻzlari, koʻchma maʼnodagi soʻzlari, tasviriy vositalari va boshqa unsurlari koʻp boʻlgan sheʼrlar mazmuni kutilgan darajada mos ravishda tushunilmaydi, idrok etilmaydi. Masalan, Qambar otaning «Murabbo» sheʼrida «topishdi» [11. 39-b.] soʻzi oʻzining «topmoq» maʼnosida emas, balki koʻchma holdagi «chiqishmoq» maʼnosida qoʻllangan. Sheʼrni rusiyzabon oʻquvchi quyidagi mazmunda tushunishi lozim:

Olxoʻri pishdi,	Созре́ли сли́вы,
Qozonga tushdi,	Попа́ли в котел,
Shakar suv bilan	Саха́р с водо́й
Shunda topishdi.	Зде́сь сошл́ись.

Agar oʻquvchi «topishdi» soʻzini «нашлись» deb rus tilida ifodalasa, sheʼr bandi mazmunini toʻgʻri anglash mumkin boʻlmay qoladi. Demak, birgina soʻz (topishdi) tufayli sheʼriy misralarni toʻliq tushuna olmaslik, sheʼriy bandda yashiringan tag maʼnoni anglamaslik holati yuzaga keladi, binobarin, oʻquvchilarda sheʼrni oʻqishga boʻlgan qiziqish pasayadi.

Darsliklarda nasriy asarlar 5-sinf dan boshlab beriladi. Bu asarlarda ham leksik qiyinchiliklar koʻp. Bu haqda D.D.Islomovanning nomzodlik ishida aniq misollar keltirilgan [12]. Shunga qaramay, biz ham oʻz tahlilimiz asosida 9-sinf «Oʻzbek tili» darsligida Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» asaridan olib berilgan quyidagi parchadagi notanish (darslikdagi lugʻatda aks etmagan) soʻzlarni koʻrsatmoqchimiz:

*Gumbazli bino koʻklam quyoshida shunday **nafis** jilolanib koʻrindiki, Boburning dili ravshan tortib ketdi. Atrofdagi tabiatning goʻzalligi, bahor va*

*tog'lar ayyonga ishlatilgan naqshlarni, gumbazdagi koshinlar rangini allanechuk juda ochib ko'rsatar edi...*

*Hujra eshigi yong'oq yog'ochidan o'ymakor qilib, zar bilan ishlangan edi. Bobur go'zal o'ymakorliklarga, devor va shift bezaklariga bir-bir ko'z tashlab chiqdi-da, hujraning eshigini ochdi. Onasi bilan opasiga yo'l berib, keyin o'zi ichkari kirdi....*

Minimum hajmida hosil qilinadigan so'z boyligini hisobga olmaslik, notanish leksik va grammatik materiallari qalashib yotgan asarni o'rganish o'quvchilardagi qiziqishni so'ndirishi mumkin. Buning ustiga keyingi davrda yaratilayotgan badiiy asarlarda til egalari uchun ham ba'zan notanish («tesha tegmagan») so'zlar keng ishlatilmoqda. Demak, bu holat maktablar uchun belgilanadigan adabiy tayyorgarlik mazmunining dastlabki yirik unsuri – leksik materiallarning o'rganilgan-o'rganilmaganligini, o'zlashtirish imkoniyatlarining bor-yo'qligini hisobga olish prinsipiga amal qilishni taqozo etadi. Ayon bo'ladi, o'zbek adabiyotiga oid adabiy namunalarni tanlash oson ish emas: leksik qiyinchiliklarni ko'zda tutish va o'quvchilarning bilim saviyasiga, imkoniyatlari va ehtiyojlariga moslash maqsadida nodir asarlarni jiddiy saralash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Metodik adabiyotlarda [13. 14-b.] ta'kidlanishicha, yuqori sinflarda eng muvaffaqiyatli suratda egallangan so'z boyligida ham, saralash chig'irig'idan o'tkazilgan har qanday badiiy matnda 10-15 foiz o'rganilmagan so'z qoladi. Bu miqdor L.A.Gaydarova ko'rsatgan optimal rejimdan (4-5 foiz yangi so'z prozaik asarlar uchun, 2,5 foiz she'riy asarlar uchun) ortib ketadi.

Asarda notanish so'zlarning ko'pligi ba'zan uning mazmunini tushunishga to'g'anoq bo'ladi. Biroq bunday holatni quyidagilarga tayanib osonlashtirish mumkin: 1) ma'lum so'zlar ma'nosini kontekstual anglash imkoniyatiga tayaniladi; 2) so'zlar matnning asosiy mazmuni bilan bog'liq bo'lmagan o'rinlarda notanish so'zlarning bir qismi so'z tarkibi (kontekst) orqali tushuniladi; 3) badiiy asar tanlashda lisoniy qiyinchiliklarning bu jihatlari ham inobatga olinishi kerak. L.I.Timofeev lirikada so'zning alohida ahamiyat kasb etishiga diqqatni qaratgan. Uning fikricha: «lirikada so'z shunday ifodalilik darajasiga yetkaziladiki, kechinmalar ko'z oldimizda jonli insoniy tuyg'ulardek namoyon bo'ladigan aniq hayotiy faktga aylanadi» [14. 409-b.]. O'z-o'zidan ravshanki, she'r tanlashda ifodalilik darajasi kuchli so'zlari bor yoki yo'qligiga qaraladi, shunday so'zlari borlariga ustun ahamiyat beriladi.

Lirik she'rda tanish so'zlarning g'ayrioddiy va yangi ma'no qirralari ochiladi. She'rning katta bo'lmagan hajmi ma'lum darajada yangi so'zlarni tushuntirishdan tashqari tanish so'zlarning yangi jilolari ustida ish olib borish imkonini ham beradi.

Sharqona (o'zbekona) fikrlash natijasida olamni o'ziga xos, rus tilida so'zlovchilarning fikrlashiga mos kelmaydigan idrok etish kuzatiladi, shunday holatlarda so'z qo'llashda, timsol yaratishda milliy qadriyatlarga murojaat etish bilan bog'liq tafovutlar yuzaga keladi. Masalan, «Qo'zichog'im», «Do'mbog'im» va hokazo.

Adabiy asarda soʻzlarning ishlatilishi, timsollarning yaratilishi oʻziga xos boʻlib, lingvodidaktik asoslardan tashqari, ruscha tarjimasini ham hisobga olishni taqozo etadi. Bunda boshqa-boshqa tizimdagi timsol yaratish usullari hamda timsol tasvirini idrok etishdagi farqlar eʼtiborga olinadi. Oʻzbek xalqining atrof-muhitni oʻz koʻz qarashi bilan idrok etishi, bunday qarash nimalarda oʻz ifodasini topishini aniqlab olish adabiy tayyorgarlik mazmuniga dahldor masaladir. /Masalan, «qoʻzichogʻim» oʻzbeklar uchun eʼzozli tuygʻular baxsh etadigan tasvir vositasi boʻlsa, oʻzga millat vakillari ham buni shunday qabul qilishga oʻrganishlari kerakki, asarni toʻgʻri tushunish koʻp jihatdan ana shunga bogʻliqdir/.

Timsol yaratishda oʻzbek xalqining oʻziga xos qadriyatlaridan, milliy kiyim, zeb-ziynat, uy-roʻzgʻor buyumlari, mehnat qurollari, Oʻzbekiston tabiati va qazilma boyliklaridan, uysozlik usullaridan tortib milliy maʼnaviyatga qadar foydalanish yoʻli ham rusiyzabon oʻquvchilarning oʻzbekona adabiy tayyorgarligida maʼlum rol oʻynaydi. Masalan, «Yoʻlchining taqachi oshnasi Qoratoʻy och qornini bemaza moshxoʻrdaga toʻldirib, toʻqqiz yogʻochli sovuq uyda, tanchada, koʻzlarini xira chiroqqa tikib xomush oʻtirar edi (Oybek). Bu gapdagi «toʻqqiz yogʻochli» birikmasi imoratning katta-kichikligini koʻrsatishdagi milliy binokorlik tushunchasini ifoda etadi (uyning shiftiga toʻqqiz toʻsin tashlangan).

Oʻzbek xalqining tiliga singib ketgan iboralarni tushunish (hormang, aylanay, oʻrgilib ketay va boshqalar) oʻquvchilar uchungina emas, baʼzan tarjimonlar uchun ham maʼlum darajada qiyinchilik tugʻdiradi. M.Xolboyev oʻzining «Oʻzbek adabiyoti Fransiyada» degan risolasida bunday iboralar ruscha tarjimada aynan olingani, ruschadan fransuzchaga oʻgirilganda ham shunday saqlaganini misol qilib keltiradi (Assalomu alaykum, opa, hormang, hormang...) va: «bizning urf-odat va atamalarimizdan tamomila bexabar fransuz oʻquvchisi uchun bu iboralar notanish boʻlib qolgan» [15. 35-b.],– deb taʼkidlaydi.

Adabiy materiallarni tanlashda **grammatik qiyinchiliklar** notanish soʻzlardan kam boʻlmagan darajada qiyinchiliklar tugʻdiradigan yana bir holatdir. Darslik uchun asar tanlanganda uning til jihatidan tushunarli boʻlishiga alohida ahamiyat beriladi. Agar bir xil ahamiyatga ega boʻlgan ikkita asardan birini tanlash zarur boʻlsa, hajmi nisbatan kichikroq, tili hozirgi adabiy til normalariga yaqinroq asarlar afzal koʻriladi. Oʻquvchi nutqini rivojlantirish nuqtai nazaridan esa matnda minimum miqdordagi yangi til materiallari boʻlgani olinadi. Hajm jihatidan katta asarlar qisqartiriladi yoki undan olingan parchalargina keltiriladi. Lekin qisqartirilgan asar yoki undan olingan parcha mavzu va tuzilishi jihatidan yaxlitlik kasb etishi kerak.

Sheʼriy asarlar grammatik shakllarning ishlatilishi nuqtai nazaridan nasriy asarlarga qaraganda murakkabroqdir. Agar nasriy asarda bayon (muallif soʻzi) oʻzbek adabiy tilida boʻlsa, sheʼrda oʻzbek tili darslarida oʻrganilmaydigan sheʼriy asarlarga xos qoʻllanish xususiyatlarini koʻrish mumkin.

Notanish, oʻrganilmagan, murakkab grammatik shakllar sheʼr mazmunini tushunish ishini qiyinlashtiradi. Masalan, oʻsha «Murabbo» sheʼrida:



Bir-birin ular,  
 Qo‘llash**ib** ishlar.  
 Tinmay qaynash**ib**,  
 Bo‘lishdilar bol.

Взявшись друг за друга,  
 Поддерживая, работают.  
 Непрерывно кипя,  
 Превратились в мед.

Ushbu misralarda -ni qo‘shimchasining qisqa (-n) qo‘llanishi, ravishdoshning -b, -ib shakllari; -r qo‘shimchali kelasi zamon fe'li; fe'llardagi -sh (-ish) birgalik nisbat shakli notanish: ushbu shakllar boshlang‘ich sinflar o‘zbek tili darslarida o‘rganilmaydi.

Sintaktik qiyinchiliklar borasida I.I.Kovtunovanning quyidagi fikrini esga olish o‘rinli: «Poetik sintaksisning tipologik belgilari poetik matnlarning alohida sintaktik tashkil etilishida va tilning poetik nutqqa xos sintaktik vositalari semantikasi va funksiyalari xususiyatlarida namoyon bo‘lib, uni nutqning boshqa tiplaridan farqlantiradi» [16. 3-b.].

Masalan, G‘afur G‘ulomning «Toshkent» she'ridagi (6-sinf «O‘zbek tili» darsligi, 51-bet) dastlabki ikki misraga nazar tashlaylik:

Toshkent Osiyoning ko‘rki o‘rni-da,  
 Maqtasa arziydi, oz emas – ancha.

Ikkinchi misradagi «oz emas – ancha» ifodasi *maqtasa* so‘ziga bog‘lanib, undan oldin kelishi kerak edi: *Oz emas – ancha maqtasa arziydi*. Rusiyzabon ikkinchi misrani shu mazmunda tushunishi lozim. Lekin she'riy misraning «alohida sintaktik tashkil etilishi» mazmuni tushunishni birmuncha qiyinlashtiradi.

G.N.Eshchanovanning kuzatishlariga qaraganda quyidagi kabi holatlar o‘quvchilarning she'r mazmunini tushunishlariga xalaqit beradi:

- bir she'rning o‘zidagi 10 dan ortiq so‘zning ma'nosini bilmaslik;
- ayrim sintaktik qurilishi murakkabroq misralarning mazmunini umuman tushunmaslik yoki noto‘g‘ri tushunish oqibatida ular mazmunidan ta'sirlanmaslik [17. 10-b.].

O‘qishga o‘rgatish uchun ajratiladigan badiiy asarni tanlashning ikkinchi yetakchi prinsipi – *o‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik, milliy xususiyatlarini, ularning qiziqishlarini, adabiyotni idrok etishga tayyorgarlik darajasini hisobga olish* lozim (14-15-bet). Bunda, ayniqsa, o‘smirlar nazarda tutilganda hayotni anglash, ijtimoiy va axloqiy ideallarni izlash, o‘quv-biluv va o‘z ustida ishlash motivlari, emotsional va estetik motivlar ustuvor bo‘ladi. (15-bet).

**Asar janriga ko‘ra hayotni, sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni tushunish qiyinchiligi** oldindan albatta bartaraf etilishi shart. Adabiy asarni tanlashda yozuvchi hayotning qaysi hodisalarini tasvirlayotgani, qaysi tomonlarini ajratayotgani, ularni qay tarzda talqin qilayotgani, qanday g‘oyaviy muammolarni o‘rtaga qo‘yayotganiga e'tibor beriladi. Asarlarda tasvirlangan biror tarixiy davr ruhi, xalqimizning turmush tarzi, shu davrga xos ijtimoiy munosabatlar ma'naviy boyliklar sifatida kitobxonlar qalbiga yetib boradi, u yerda puxta o‘rnashib, muhrlanib qoladi, tarbiyaviy ta'sir ko‘rsatib turadi. «Asarning yaratilishida asos bo‘lgan aniq bir tarixiy faktlarga tayanilgan taqdiridagina yosh

zamondoshlarimizning ma'naviy hayoti uchun dolzarb ijtimoiy-ruhiy mazmuni yetkazib berish mumkin» [18. 8-b.].

Adabiy materiallar *janr va uslub* jihatdan ham ko'rib chiqilishi lozim. Nasriy asarlarni tanlash bir qadar qiyinchilik uyg'otsa, she'riy asarlarni tanlash undan ham mashaqqatlidir. Shunga qaramay, she'riy asarlar ta'lim mazmuniga juda erta kiritiladi. Ularning estetik qadriyatlarga boyligi, ritmika va ohangni o'rgatish uchun qulayligi shunga imkon beradi. Ayrim she'rlarda rivoyalash ham mavjud bo'lgani uchun mazmunini tushunishda birmuncha osonlik tug'diradi. Bizningcha, hayotiy voqyealar ham saralanishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari qaysi voqealardan xabardor bo'lishlari kerakligi, umumta'lim bosqichi o'quvchilarini qaysi ijtimoiy hodisalar qiziqtirishi, o'smirlarni nimalar qiziqtirishi sarhisob qilinmog'i darkor.

Nasriy asarlarni o'rganishning ahamiyati haqida metodist olima D.D.Islomova bunday yozadi: «Nasriy asarlar o'quv matnlariga qaraganda ham o'zbek tilini, ham adabiyotini, ham milliy qadriyatlarini o'rganishda mazmunli, ta'sirchan vosita sanalib, o'quvchilar qalbiga yo'l topa oladi» [12. 15-b.]. Aslida ham shunday.

D.D.Islomova tanlanadigan nasriy asarning hajmiga, ayniqsa, uning yirik asardan olingan parcha ekanligiga alohida e'tibor beradi. Uning quyidagi fikrlari masalaga oydinlik kiritadi: «Hajmi kichikroq hikoyalarni to'lig'icha olish va qisman adaptatsiya qilish mumkin bo'lsa, aksincha, povest yoki romanlarni bu tarzda darslikka kiritishning iloji bo'lmaganligi uchun ulardan parchalar ajratilishi kerak. Yaxlit olingan yoki qisqartirilgan (adaptatsiya qilingan) hikoya bilan yirikroq asardan keltirilgan parcha hajman teng va o'xshash bo'ladi, lekin ularni janr xususiyatlariga ko'ra farqlantiruvchi, ayrim parchalarda esa badiiy idrok sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi jihatlar ham bo'lishi mumkin» [12. 17-b.].

Muallif rusiyzabon o'quvchilarga mo'ljallab qissa yoki romandan olingan parchada asar boshida keltiriladigan ekspozitsiya ba'zan tushib qolgan bo'lishi, detektiv asarlarda, A.Qodiriyning ba'zi hikoyalarida ekspozitsiya asar mazmunining oxiriga qo'yilgan bo'lishi, hikoyaning oxirini qisqartirish paytida u tushirib qoldirilishi mumkinligini ta'kidlaydi [12. 22–23-b.]. Shuningdek, hikoya ko'pincha konflikt asosiga qurilishi, roman yoki qissadan olingan parchada u ko'pincha noaniq bo'lishi uqtiriladi [12. 24-b.]. Tabiiyki, ekspozitsiya bo'lmasa, ba'zan tugun ham bo'lmaydi. Tugun orqali ifodalangan konflikt ayon bo'lmasa, syujet rivoji ham aniq kuzatilmaydi [12. 24-b.]. «...tanlangan parchani asar syujetining muhim komponentlari bilan *kichik muqaddima* va *yakun* ko'rinishida ta'minlash zaruriyati mavjud» [12. 30-b.].

D.D.Islomovaning aniqlashicha, «Yirik asardan olingan parchada «to'liq bo'lmagan» aloqalar aks etadi. Bunday aloqalar parchada tasvirlangan voqea-hodisalarning sabablari asarning bosh qismlarida qolib ketganligi, qahramonlar o'rtasida shakllangan munosabatlar ham avvalroq yoritilganligi va boshqa shu kabilar tufayli o'quvchi uchun mutlaqo noaniq bo'lib turadi va ba'zan parchaning muayyan yeriga borganda biror tafsil orqali oydinlashadi» [12. 33-b.].

Asar tanlashda qahramonlik, dramatik, romantik, tanqidiy yoʻnalishdagi asarlarga ham eʼtibor berish talab etiladi. Bular orasida muayyan nisbat taʼminlanishi lozim.

Asar tanlashda sheʼriyatga ham juda katta eʼtibor berish kerak. Sheʼrda shoirning shaxsiy kayfiyati, umuminsoniy qadriyatlar mujassamlashgan boʻladi.

**Muammolilik tufayi yuzaga keladigan qiyinchiliklar** ham jiddiy muammolar tugʻdiradi. D.D.Islomova oʻzbek tilida oʻrganish uchun tanlanadigan nasriy asarlarning quyidagi muammoli jihatlariga eʼtiborni qaratadi: «Oʻzbek tilidagi badiiy asar baʼzan oʻquvchilarning odatdagi tasavvurlariga mos kelmaydi, chunki unda tasvirlanayotgan voqea-hodisalar, qahramonlarning xarakter xususiyatlari, bir tomondan, milliy qadriyatlar va milliy maʼnaviyat bilan, ikkinchi tomondan, umuminsoniy xislatlar bilan bogʻliq boʻladi. Ana shunday badiiy obrazli asarlardan olingan parchalarni oʻqib-oʻrganish bu asarlarning gʻoyaviy-estetik jihatlarini, qurilishi, til xususiyatlarini tadqiq etish, shu asnodda qoʻshimcha maʼlumotlar bilan tanishish mazmunida kechadi. Ayniqsa, yirik asardan keltirilgan parchaning qurilishi bilan bogʻliq qiyinchiliklar oldindan bartaraf etilmas ekan yoki bu qiyinchiliklarga qisman barham beradigan qoʻshimcha maʼlumotlar (izohlar, sharhlar) berilmas ekan, baʼzan oʻqituvchining ushbu mushkulliklarni keltirib chiqargan sabablarni bilmasdan turib qiladigan saʼy-harakatalari, urinishlari besamar ketishi, yaʼni shu orqali erishiladigan natijalar yoʻqqa chiqishi mumkin» [12. 16-b.].

Muammoli matnlarga esa, aksincha, ulardagi mavqelararo sabab-natija aloqalari bir xil maʼnoda boʻlmagan mantiqiy struktura xosdir. Metodist olim R.Yoʻldoshev boshchiligidagi mualliflar guruhi tuzgan 8-sinf «Oʻzbek tili» darsligida [19] Pirmqul Qodirovning asaridan parcha berilgan. «Yulduzli tunlar» sarlavhali parchaning dastlabki qismi (55–56) muammoli matn xususiyatini oʻzida ifoda etadi. Bu yerda, bir tomondan, Humoyun, ikkinchi tomondan, Bobur, uchinchi tomondan, ruhoniylar mavqelararo sabab-natija aloqadadirlar. Shayxulislom Humoyunning kasalini tuzatsalar, Boburga oʻz hukmini oʻtkazish huquqini qoʻlga kiritgan boʻlardilar. Humoyun otasi Boburning iltijosi bilan sogʻayib ketganidan xijolatda. Bobur farzandining salomatligini oʻz hayotidan ham ustun qoʻyadi. Rusiyzabon oʻquvchilar kichik bir parchani oʻqish orqali ushbu mavqelararo sabab-natija aloqa va bogʻlanishlarni katta qiyinchiliklar bilan anglab yetadilar.

9-sinf «Oʻzbek tili» darsligida Pirmqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» asaridan bir emas beshta parcha keltirilgan. Shu munosabat bilan parchalar orasida oʻzaro aloqadorlik, bogʻlanishning bor yoki yoʻqligi ham muammoli matnlarning yuzaga kelishi uchun sabab boʻladigan omillar sirasiga kiradi. Darslikda «Maʼrifat fidoyilari» mavzusi munosabati bilan 1-darsda Humoyunning kutubxonasi va Humoyunning Boburdan shu kutubxona uchun kitoblar yozib berishi haqidagi iltimosi aks etgan parcha joy olgan. 2-darsda keltirilgan parchada Boburning ijod jarayoni tasviri berilgan. Darslikdagi parchalar tahlili shuni koʻrsatadiki, keltirilgan beshta parchaning har biri oʻzicha mustaqil kichik mavzuga ega boʻlib, ularni

umumlashtirish, bir butunga birlashtirish qiyin. Chunki she'riy asar qaysi shoirga, nasriy asar qaysi yozuvchiga tegishli ekanligidan qat'i nazar asosan mavzuviy mansubligiga ko'ra tanlangan.

Xullas, hikoyani yoki yirik nasriy asardan olingan parchani adaptatsiya qilish uning mazmunini to'ldiradigan ma'lumotlar qo'shishdan iborat bo'ladi.

Xullas, nasriy asarlardan olingan parchalarda ham, ba'zi she'riy asarlarda ham muammolilik mavjud bo'lmasligiga harakat qilish lozim. Bu esa yana asar tanlash bilan bog'lanadi. Ba'zan metodik mulohazalar bilan oldindan tanishmagan holatda asarning yo boshlanish qismi, yoki kulminatsiyasiga aloqador qismi olinishi mumkin. Bular matnning asosiy qismini o'qib chiqishga qiziqish uyg'otadi. Ba'zan bir yirik asardan bir nechta gapdan iborat parchalar tanlanishi va ular montaj-matn shaklida taqdim etilishi mumkin. Bunda parchalar asarning har yer, har yeridan olinadi.

**O'quvchilarning ijtimoiy va psixologik xususiyatlarini** hisobga olish asar tanlashning muhim jihati sanaladi. Bizningcha, o'zbeklarning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishida o'ziga xos xarakterli davrlar mavjud. O'quvchilar o'quv-biluv intilishlariga ko'ra O'zbekiston, o'zbek xalqi tarixi, adabiyoti, madaniyati va san'ati haqida, o'zbeklar, ularning qadriyatlari to'g'risida ko'proq ma'lumot olish ishtiyoqida bo'ladilar. Shunga ko'ra asar tanladagi asosiy prinsiplardan biri – bu o'quvchilarning *o'quv-biluv ehtiyojlarini* ko'zda tutishdir.

Adabiy tayyorgarlikning markazida rus tilida so'zlovchi o'quvchilarni o'zbekona (sharqona) milliy qadriyatlarni til egalari qabul qilganday qabul qilishga o'rgatish turmog'i lozim. Chunki ayni badiiy asarning timsol yaratishdagi milliy qadriyatlarga asoslanadigan o'rinlarida yoshlarda shakllangan estetik va etik ideallarning yangi estetik va etik ideallar bilan to'qnashuvi sodir bo'ladi.

Ruhshunos L.S.Vigotskiyning bir fikrini inobatga olmay bo'lmaydi: «Quyí sinf o'quvchilari voqelikni qanday idrok etsalar, shu tarzda fikrlaydilar; yuqori sinflar o'quvchilari esa qanday fikrlasalar, voqelikni shunday idrok etadilar» [20. 196-s.]. «Проблемы преподавания русской литературы» kitobida badiiy timsollardagi milliy xususiyatlarning badiiy idrokka ko'rsatadigan ta'siri masalasiga ham to'xtab o'tiladi: «Adabiyotni soddadil realistik idrok etganda rus bo'lmagan o'quvchilar adabiy asarni milliy o'ziga xos fenomen sifatida emas, balki real mavjud ob'ektiv borliq sifatida qabul qiladilar. Binobarin, agar asar ularning *etik va estetik tasavvurlariga zid kelsa, yoqmay qoladi*» [21. 70-b.]. Masalan, aka va ukaning, opa va singilning, opa va ukaning bir-biriga quda bo'lishi rus tilida so'zlovchi yoshlarning qarashlariga butunlay zid keladi. Bunday munosabatlarni aks ettirgan asarlarni ular uzoq vaqt xazm qilolmay yuradilar.

**Axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini** hisobga olish muhim omil sanaladi. Pedagog olimasi O.Musurmonova ta'kidlaganidek, «Milliy adabiyot har bir millatning xarakteri, his-tuyg'ulari, turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti bosqichlarini haqqoniy chiziqlarda badiiy ifodalaydi» [22. 14-b.]. Bu fikr ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning o'zbek tili darslari uchun badiiy asar tanlash ishlariga to'g'ri yo'nalish bera oladi. O'quvchilar ana shunday

matnlar asosida o'zbekni, o'zbek xalqini, uning milliy ma'naviyati va qadriyatlarini, ayni paytda xulq-atvorini tushunish va bularga hurmat bilan qarash mazmunida tarbiya topadilar.

Ota-ona, ayollarga munosabat, ustozu shogird, takallum, mehmonnavozlik, hayo, mehribonlik, mehr-muruvvatlilik, bag'rikenglik, odillik, onani qo'msash, uni sog'inish, qanoatlilik, halollik, nomuslilik va boshqa bir qator axloqiy fazilatlarda sharqona jihatlar mavjud.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, milliy adabiyotlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan bir qatorda aniq milliylik orqali namoyon bo'ladigan umumiy baynalminal mazmun ham mavjud. Tanlanayotgan asarlarning bu jihati ular mazmunini tushunishni osonlashtiradi. Ehtimol, dastlabki kezlarda, aniqsa, quyi sinflarda ko'proq ana shunday mushtarak asarlar ajratilgani ma'quldir.

### **Xulosa**

Xullas, o'zbek adabiyoti asarlarini o'rganishda o'zbek bo'lmagan kitobxon o'z badiiy idroki tajribasiga asoslanadi. O'z milliy adabiyoti nuqtai nazaridan qaraydi. Asar mazmunini tushunish ana shunday murakkablashgan vaziyatlarda amalga oshadi.

Umuman, ta'lim mazmuni uchun zamon o'tishi bilan badiiyligi «o'zgarib» qolmaydigan asarlar tanlanishi lozim.

Xullas, «O'zbek tili» darsliklari uchun tanlanadigan she'riy va nasriy asarlarning badiiy jihatdan yana ham yuksakroq bo'lishiga harakat qilish, bunda ularni o'rganishdan ko'zlanadigan maqsad va vazifalardan, hisobga olish lozim bo'lgan holatlardan kelib chiqish, zarur.

### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent. 1997-yil 29-avgust. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonuni. Toshkent. 2020-yil 23-sentabr.
2. Qozoqboy Yo'ldosh. Yoniq so'z. – Toshkent “Yangi asr avlodi”, 2006.
3. Xalliyeva G.I. XX asr rus sharqshunosligida o'zbek mumtoz adabiyoti tadqiqi: Filol. Fanlari doktori ... diss. avtoref. – Toshkent, 2016. – 24 b.
4. O'zbek tili va adabiyoti. Ta'lim qozoq, qirg'iz, turkman tillarida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarining II–IX sinflari uchun sinov dasturi. Mualliflar: R.Yo'ldoshev, A.Rafiyev, O.Musilimova. – Toshkent: RTM, 1998.
5. O'zbek tili va adabiyoti. Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarining II – IX sinflari uchun dastur. – Nukus: O'zPFITI, Qoraqalpoq filiali, 1999.
6. Yo'ldoshev R., Mullamuhamedov S. O'zbek tili va adabiyoti: (Kechki smenali ishchi yoshlar maktablarining X-XII sinflari uchun darslik). - Toshkent: O'qituvchi, 1995.

7. Игнатова Е. В. Рекомендации по работе с текстами литературных произведений на уроках немецкого языка// Иностранные языки в школе. – 1992, №5–6. – С. 23–27.

8. Приступа Е. Д. Особенности изучения монографических тем в старших классах в национальной школы. Автореф. дис. .. канд. пед. наук. – М., 1985. – С. 21.

9. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda «O'zbek tili» davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi / Ta'lim taraqqiyoti. 1-maxsus son. – Toshkent: Sharq, 1999. – 249-b.

10. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 2005. – 270 b.

11. Tolipova R., Is'hoqova N. O'zbek tili. Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning 3- sinfi uchun.. – Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 39-bet.

12. Islomova D.D. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda nasriy asarlarni o'rganish (rus guruhlarini misolida): Ped. fan.nomz. ... diss. – Toshkent, 2007.

13. Пути оптимизации структуры учебников по русской литературе. – Фрунзе: Мектеп, 1973. – С. 14.

14. Тимофеев Л. И. Очерки теории и истории русского стиха. М.: Просвещение, –1958. – С. 409.

15. Xolbekov M. O'zbek adabiyoti Fransiyada. – T.:Fan, 1988. – 35 b .

16. Ковтунова И.И. Поэтический синтаксис. – М.: Наука, 1986. – С. 3.

17. Eshchanova G.N. O'zbek tili darslarida she'riy asarlarni o'rganishning lingvometodik asoslari (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar misolida): Ped.fan.nomz. ... diss. avtoreferati. – T., 2009. – 10-bet.

18. Педагогический словарь: В 2-х.т. –Т. 1.– М: Изд-во АПН, 1960.– С. 8.

19. Yo'ldoshev R., To'xtamirzayev M., Rixsiyeva M., Niyozmetova R. . O'zbek tili: Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning 8-sinfi uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2000.

20. Выготский Л. С. Избранные психологические исследования мышления и речи. Проблемы психологического развития ребенка. М.: Изд. АПН РСФСР, 1956. – С. 196.

21. Проблемы преподавание русской литературы. –Л.: Просвещение, 1989, – С. 70.

22. Musurmonova O. Adabiyot darslarini tashkil etishning samarali usullari. – T: O'qituvchi, 1993. – 14-bet.

## A SELECTION OF WORKS FROM NEW UZBEK LITERATURE FOR UZBEK LANGUAGE LESSONS: PROBLEMS AND SOLUTIONS

**Niyozmetova Roza Khasanovna.<sup>1</sup>**

**Annotation.** The article describes the goals and objectives of teaching Uzbek literature at the lessons of the Uzbek language in Russian-language schools, the problems of determining the content of education and ways to solve them. In particular, the selection of high-quality works of art from the new Uzbek literature, including an appeal to the works of famous writers, lexical and grammatical difficulties that cause respect and respect among representatives of Uzbek literature with their works, the desire to get acquainted with the work of Uzbek writers and poets.

**Keywords:** Russian-speaking schoolchildren of grades 2-9, lessons of the Uzbek language, new Uzbek literature, selection of works, goal, task, artistic value, famous writer and poet, difficulties, consideration.

### **References:**

1. Hallieva G.I. Study of Uzbek classical literature in the national oriental studies of the twentieth century: Filol. Doctor of Science ... diss. author. - Tashkent, 2016. -- 24 p.

2. Uzbek language and literature. Test program for grades II-IX of secondary schools with Kazakh, Kyrgyz and Turkmen languages of instruction. Authors: R. Yuldashev, A. Rafiev, O. Musilimova. - Tashkent: RTM, 1998.

3. Uzbek language and literature. The program is intended for grades II-IX of secondary schools, where instruction is conducted in the Karakalpak language. - Nukus: UzPFITI, Karakalpak branch, 1999. European Scholar Journal (ESJ)

4. Yuldashev R., Mullahamamedov S. Uzbek language and literature: (Textbook for X-XII grades of schools for the evening shift of working youth). - Tashkent: Teacher, 1995.

5. Ignatova EV Recommendations for working with texts of literary works in German lessons // Foreign languages at school. - 1992, N5-6. - S. 23–27.

6. Pristupa ED Features of the study of monographic topics in old grades in the national school. Abstract of thesis. dis. .. Cand. ped. sciences. - M., 1985. - S. 21.

7. State educational standard and curriculum "Uzbek language" in schools with a different language of instruction / Development of education. 1 special issue. - Tashkent: Shark, 1999. -- 249-p.

8. Izzat Sultan. Literary theory. - T.: Teacher, 2005. - 270 p.

---

<sup>1</sup> **Roza Niyozmetova** – Professor of the Department of "Methods of teaching Uzbek literature" of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, Doctor of Pedagogical Sciences.

**Email:** mushtariy63@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0001-7766-5295

**For quotation:** Niyozmetova R. 2021. A selection of works from new Uzbek literature for Uzbek language lessons: problems and solutions. Uzbekistan: language and culture.

9. Tolipova R., Iskhakova N. Uzbek language. For 3 grades of schools with Russian as the language of instruction. - Tashkent: Teacher, 2001 .-- 39 p.
10. Islomova D.D. Study of prose in academic lyceums and professional colleges (on the example of Russian collectives): Ped. fan no. ... diss. - Tashkent, 2007.
11. Ways to optimize the structure of textbooks on Russian literature. - Frunze: Mektep, 1973 .-- P. 14.
12. Timofeev LI Essays on the theory and history of Russian verse. M.: Education, -1958. - S. 409.
13. Holbekov M. Uzbek literature in France. - T.: Fan, 1988 .-- 35 p.
14. Kovtunova I.I. Poetic syntax. - M.: Nauka, 1986 .-- P. 3.
15. Pedagogical Dictionary: In 2. t. -T. 1. - Moscow: APN Publishing House, 1960 .-- P. 8.
16. Yuldashev R., Tukhtamirzaev M., Riksieva M., Niyozmetova R. Uzbek language: Textbook for 8 grades of Russian-language schools. - Tashkent: Teacher, 2000.
17. Vygotsky LS Selected psychological studies of thinking and speech. Problems of the psychological development of the child. Moscow: Ed. APN RSFSR, 1956 .-- p. 196.
18. Problems of teaching Russian literature. -L.: Education, 1989, - S. 70.
19. Musurmonova O. Effective ways of organizing literature lessons. - T: Teacher, 1993 .-- 14 p.